Tadqiqot.uz

# YANGI O‘ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM

CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO‘P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



SPEKTROSKOPIYA - MATERIYANI BILISH USULI


TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO‘CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



YANVAR №48

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 1-ҚИСМ

# НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: ИННОВАЦИИ, НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ ЧАСТЬ-1

# NEW UZBEKISTAN: INNOVATION, SCIENCE AND EDUCATION PART-1

ТОШКЕНТ-2023

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]**

**“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим”** мавзусидаги республика 48-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегияси-дан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Проф. Хамидов Мухаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

**1. Abduraximov Donyorbek Maxmudjonovich**
ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH ISHLARINI TASHKIL ETISH ........................................................................................................................ 7

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

**Abduraximov Donyorbek Maxmudjonovich**
Mayor, O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi magistraturasi
«tashkiliy-taktik boshqaruv» yo’nalishi tinglovchisi

**Annotatsiya:** Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xar bir xodimni, u qaysi sohaviy xizmatda faoliyat ko’rsatishidan qat’iy nazar, osoyishtalik posboni deyish mumkin. maqolada ana shu organ xodimlarini ijtimoiy himoya qilish ishlarini tashkil etish, bu borada qabul qilingan qaror va farmonlar haqida so’z yuritiladi.
**Kalit so’zlar:** organ, IIV, ijtimoiy himoya, imtiyoz, moddiy yordam, mukofotlash, sharoit, hujjat, qonun, xodim, islohot.

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish mamlakatimizni yanada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish va oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlar maqsadlariga erishish huquqiy demokratik davlat qurish uchun muhim talabi sifatida qaralmoqda. Ushbu hayotiy talabni munosib darajada ta’minlash, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish funksiyasini bajarishning eng muhim va asosiy omillaridan biri yuksak ma’naviyatli kadrlar, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlashni taqozo etadi.

Har qanday jamiyatda, uning barcha jabhalarida, islohotlar sharoitida O’zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ishlashni tashkil etish sohasida ham hayotiy ehtiyojlar va davr talablaridan kelib chiqqan holda vazifalar belgilab olinmoqda. Aytish joizki, ichki ishlar organlarida zamonaviy islohotlar juda jadal olib borilmoqda. Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida shaxsiy tarkibni ijtimoiy kafolatlash, shuningdek, xodimlar, ishchi va xizmatchilar, pensionerlar hamda ularning oila a’zolariga moddiy yordam berib borish tartibi tizimli ravishda yo’lga qo’yilgan.

Ichki ishlar organlari xodimlari quyida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida, o’zlariga tegishli bo’lgan imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

Jumladan, IIVning 2018 yil 5 fevraldagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy kafolatlash to’g’risidagi yo’riqnomani tasdiqlash haqida”gi 32-sonli hamda 2018 yil 13 iyuldagi “Ichki ishlar organlarining xodimlari, ishchi va xizmatchilari, pensionerlari hamda ularning oila a’zolariga moddiy yordam berish tartibi to’g’risidagi yo’riqnomani tasdiqlash haqida”gi 192-sonli buyruqlari tasdiqlangan holda ijroga qaratilgan.

Vazirlikning 2018 yil 5 fevraldagi 32-son buyrug’i bilan tasdiqlangan, ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy kafolatlash tartibi to’g’risidagi yo’riqnoma asosida, ichki ishlar organlarining maxsus unvonga ega bo’lgan xodimlariga Vazirlikning Maxsus byudjetdan tashqari jamg’armasi mablag’lari hisobidan foizsiz qarz berish, moddiy yordam ko’rsatish, mukofotlash hamda madaniy-ommaviy ko’ngilochar tomoshalarga borishlari uchun mablag’ ajratish tartibi belgilangan.

Mazkur jamg’arma mablag’lari har yili xodimlarni quyidagi shakllarda ijtimoiy kafolatlash uchun ajratiladi:

- yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj xodimlarga uy-joy sotib olish, ta’mirlash, uy-joy qurish, qurilish mollari sotib olish, ipoteka krediti uchun dastlabki badal to’lovi va boshqa shu kabi maqsadlar uchun besh yildan ko’p bo’lmagan muddatga - bazaviy hisoblash miqdorining ming baravaridan oshmaydigan miqdorda foizsiz qarz berish;
- to’y-tantanalari va boshqa tadbirlar o’tkazish uchun xodim pul ta’minotining ikki baravarigacha bo’lgan miqdorda bir martalik moddiy yordam;
- og’ir betob xodimlarga davolanish uchun – pul ta’minotining besh baravarigacha miqdorda

bir martalik yordam;

- pul mukofoti yoki qimmatbaho sovg’alar bilan mukofotlash;
- madaniy-ommaviy, ko’ngilochar tomoshalar va boshqa dasturlariga borishlarini ta’minlash.

Yashash sharoitini yaxshilash uchun foizsiz qarz ichki ishlar organlarida besh yildan ortiq xizmat qilgan, harakatdagi intizomiy jazosi bo’lmagan, xizmatda samarali natijalarga erishgan, moddiy jihatdan qarzni qaytarish imkoniga ega bo’lgan hamda yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj xodimlarga beriladi. Xodim tomonidan qarz olish uchun Vazirlik markaziy uy-joy komissiyasi va joylardagi hududiy uy-joy komissiyalariga yo’riqnomada ko’rsatib o’tilgan hujjatlar ilova qilingan holda bildirgi bilan murojaat etiladi. Markaziy komissiya tomonidan xodimga qarz berish yoki murojaatni qanoatlantirmaslik to’g’risida qaror qabul qilinadi. Qarz berish to’g’risida qaror qabul qilingan taqdirda, qaror nusxasi ijro uchun Vazirlik Moliya-iqtisod boshqarmasiga taqdim etiladi.

Bundan tashqari, xodimlarga moddiy yordam ko’rsatish, mukofotlash va boshqa xarajatlar uchun mablag’lar ajratish belgilangan bo’lib, mazkur yo’nalishdagi masalalarni ko’rib chiqish uchun Vazirlikda Markaziy komissiya va joylarda hududiy komissiyalar tuziladi. Mazkur tartib asosida xodimlar tomonidan quyidagi maqsadlar uchun moddiy yordam ko’rsatish bo’yicha asoslari ko’rsatilgan holda bildirgi orqali murojaat etishlari mumkin:

- to’y-tantanalari va boshqa tadbirlar o’tkazish uchun - pul ta’minotining ikki baravarigacha bo’lgan miqdorda;
- og’ir betob xodimlarni davolash uchun bir martalik moddiy yordam to’lab berish uchun – pul ta’minotining besh baravarigacha miqdorda.

Murojaatlarni ko’rib chiqishda bildirgida ko’rsatilgan holatlar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan va asoslantirilgan bo’lishi lozim. Shuningdek, Vazirlikning 2018 yil 13 iyuldagi 192-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan, ichki ishlar organlarining xodimlari, ishchi va xizmatchilari, pensionerlari hamda ularning oila-a’zolariga moddiy yordam berish tartibi to’g’risidagi yo’riqnoma talablariga asosan, moddiy yordam quyidagi maqsadlarda va miqdorlarda tayinlanadi:

- ichki ishlar organlari pensionerlariga sog’lig’ini tiklashda dori vositalari yoki tibbiy buyumlar sotib olish uchun – bazaviy hisoblash miqdorining o’n baravarigacha bo’lgan miqdorda;
- ichki ishlar organlari xodimlari yoki pensionerlarning yaqin qarindoshlari vafot etganda ta’ziya xarajatlarini koplash uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o’n besh baravarigacha bo’lgan miqdorda;
- ichki ishlar organlari xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda pensionerlarga tabiiy ofat yoki favqulodda sodir bo’lgan hodisalar oqibatlarini bartaraf etish uchun - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha bo’lgan miqdorda;
- xizmat burchini bajarish vaqtida halok bo’lgan ichki ishlar organlari xodimlarining oila a’zolarini rag’batlantirish uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o’ttiz baravarigacha bo’lgan miqdorda berilishi ko’zda tutilgan.

Moddiy yordamga muhtoj xodimlarning moddiy yordam olish to’g’risidagi arizalari (kerakli hujjatlar ilova qilingan holda) Vazirlik Moliya-iqtisod boshqarmasi mas’ul xodimi tomonidan o’rnatilgan tartibda ko’rib chiqiladi hamda natijasi bo’yicha tegishli xulosa tayyorlanib, Vazirlik rahbariyatiga tasdiqqa kiritiladi.

Bundan tashqari Ichki ishlar vazirining «Ichki ishlar organlarida ijtimoiy himoya qilish faoliyatini yanada takomillashtirish to’g’risida» 2022 yil 1 martdagi 55-son buyrug’iga asosan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish faoliyatida byurokratik to’siqlarni yanada qisqartirish maqsadida quyidagi amaliyot joriy etilgan:

— xodimlar va ularning oila a’zolariga ijtimoiy himoya qilish borasidagi xizmatlar «Yagona darcha» tamoyili asosida ijtimoiy himoya qilish masalalari bo’yicha markaziy hamda hududiy komissiyalar tomonidan ko’rsatiladi;

— MMIvaKBTD hamda uning hududiy bo’linmalari ijtimoiy himoya qilish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va uning yagona tizim asosida muvofiqlashtirilishini ta’minlaydi;

— ijtimoiy himoya qilish borasidagi murojaatlar an’anaviy tarzda hamda Vazirlikning “E-ijtimoiy-himoya.iiv.uz” yagona interaktiv xizmatlar portali orqali elektron tarzda qabul qilinadi va oshkora elektron navbat yuritiladi;

— ijtimoiy himoya qilish faoliyatini boshqacha tarzda amalga oshirishga, shu jumladan bu boradagi murojaatlarni ko’rib chiqishda sansalorlik va byurokratik to’siqlarga yo’l qo’yilmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. https://iiv.uz/news
2. https://xs.uz/
3. L.N.Radjapova. Ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoyasining ayrim jihatlari. Science and innovation. Toshkent. 2022.

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 1-ҚИСМ

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000